



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA
BOSHQARMASI



**TOSHKENT SHAHRIDA
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI**
2021- yil yakuniga

TOSHKENT SHAHRIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Madaniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, [badiiy tasvir](#), [me'morchilik](#), [teatr](#), [kinematografiya](#), turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. [Antropologiyada](#) "madaniyat" atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish, hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga [san'at](#), [fan](#) va ma'naviy tizimlarni oladi.

Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.

Madaniyat- arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan.

San'at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli hisoblanib, san'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan.

San'at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruxda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan, ularning turli maqsad, his-tuyg'u, manfaat, ideallarini ifoda etgan.

San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shunday aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi.

Teatr san'ati- Insoniyat ma'naviy hayotida teatr san'ati juda qadimdan o'z o'rnini yo'qotmay keladi. Bundan bir necha ming yillar avval qadimgi Hindiston, qadimgi Xitoy va qadimgi Yunonistonda dastlab teatr bir kishilik sahnadan iborat bo'lgan, keyinchalik ikki kishilik sahnadan, undan keyingina jamoviy san'at turiga aylangan.

Ya'ni spektakl jamoaviy ijod mahsuli- rejissyor, dramaturg, aktyor va rassomning ijodiy izlanishlari natijasida o'laroq yuzaga keladi. Teatr san'atining o'ziga xos jihati shundaki, unda sahna asari [tomoshabin oldida yaratiladi](#), o'sha rejissyor, sahnaga qo'ygan o'sha aktyorlar o'ynagan bugungi spektakl kechadigan farq qiladi. Bu sahna san'atning doimiy ijodiylikini ko'rsatadi, bugungi ijodga aktyor nimanidir qo'shadi yoki undan olib tashlaydi. Bu uning ruhi, ijodiy kayfiyati, ikki yoki uch kunlik o'sishi bilan bog'liq.


Xulosa. Bizning ba'zi mulohazalarimiz, ilmiy xulosalarimiz umumjahoniy ildizga ega bo'lgan milliy estetikamizda bu boradagi dastlabki nazariy yondashuvlardir.

TOSHKENT SHAHRIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Teatrlar soni, birlikda



2021-yilda tumanlar bo'yicha teatrlar tarmog'i va faoliyati




2021-yil Toshkent shahrida teatrlar soni 19 tani tashkil etdi.

Spektakllar (tomoshalar) soni, birlikda




2021-yil tumanlar bo'yicha spektakllar tarmog'i va faoliyati soni, birlikda



2021-yil Tashkentda namoyish etilgan spektakllar soni **3151** tani tashkil etdi. Shayhontohur tumanida **1519** ta qayd etilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng kam ko'rsatkich **230** ta Yakkasaroy tumani hissasiga to'g'ri keladi.

Teatrga kelgan tomoshabinlar soni, ming kishi




2021-yil tumanlar kesimida tomoshabinlar soni, birlikda




Janrlar bo'yicha teatrlar tarmog'i




2021- yilda teatr hodimlari soni



2021- yil faoliyat olib boriladigan
tillar bo'yicha teatrlar, foizda




2021- yil tumanlar kesimda teatrlarda namoyish etilgan bepul
spektakllar




TOSHKENT SHAHRIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Muzeylar soni


2018- yil → 2019- yil → 2020- yil → 2021- yil




2021-yil tumanlar kesimida muzeylar soni, birlikda



2021- yil tumanlar bo'yicha muzeylarning ilmiy-ma'rifiy ko'rgazma ishlari




Hisobot yilida ochilgan ko'rgazmalar soni




2021-yil Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan muzeylar soni 30 tani tashkil etadi. Yakka tartibda qatnovlar soni 1027 ming kishiga, ekskursiya tarzida qatnaganlar soni 294,9 ming nafarni tashkil etadi.

TOSHKENT SHAHRIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Muzeylar fondlari, birlik



2021- yilda bo'limlar bo'yicha muzeylar fondlari, birlik



2021- yilda eksponatlarning turi bo'yicha muzeylar fondi



Muzeylardagi eksponatlar soni 1062385 ming donani tashkil etib, shundan 9,2 foizi arxeologik ashyolar, 10,9 foizi numizmatika, 13,0 foizi hujjatlar, 11,0 foizi foto sur'atlar, 2,8 foizi amaliy san'at, maishiy va etnografiya 2,6 foizi, grafikalar 2,3 %, rang tasvir - 1,0%, haykaltaroshlik - 0,2%.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Madaniyat- inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat [musiqa](#), [adabiyot](#), [badiiy tasvir](#), [me'morchilik](#), [teatr](#), [kinematografiya](#), turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros - bu xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, ob'ektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari – moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

nomoddiy madaniy meros obyektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-aybong'lar, artefaktlar, madaniy makonlar”.

Ansambllar – tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyliigi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlar, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

Diqqatga sazovor joylar – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

Yodgorliklar – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog'liq bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san'at asarlari, arxiv, qo'lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo'lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari.



Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Tel: +99871 203-88-27